PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA DINIY BAG'RIKENGLIKNING O'RNI

Maxmudova Xurshida Abduraxmon qizi
Andijon viloyati Andijon shahar 1-son kasb-hunar maktabi
yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya

Maqolada professional ta'lim muassasalari o'quvchi yoshlari o'rtasida dinning mazmun mohiyatini to'g'ri tushintirib berish, bugungi globallashayotgan 21 asrda yoshlarimizni har xil diniy aqidaparstlik g'oyalariga berilib ketishini oldini olishga qarshi qaratilgan mafkuraviy immunitetning texnologiyalari tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi qiyofa, Jamiyat, Sharq, Diniy bag'rikenglik, Ma'rifat, Globallashuv.

Аннотация

В статье анализируются технологии идеологического иммунитета, направленные на правильное разъяснение сути религии у студентов профессиональных учебных заведений и предотвращение податливости нашей молодежи разного рода религиозному фанатизму в условиях современного глобализированного XXI века.

Ключевые слова: Новый образ, Общество, Восток, Религиозная толерантность, Просвещение, Глобализация.

Abstract

The article analyzes the technologies of ideological immunity aimed at correctly explaining the essence of religion among students of professional educational institutions and preventing our youth from succumbing to various kinds of religious fanaticism in the conditions of the modern globalized 21st century.

Key words: New image, Society, East, Religious tolerance, Enlightenment, Globalization.

Bugungi kunda mamlakatimizda O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratish, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, milliy, ma'naviy va diniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, demokratik tamoyillarni amalga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bizga yaxshi ma'lumki, Sharqda hayotga munosabat tarbiya, ma'naviyat va komillik g'oyasi asosiga qurilgan. Bu o'z navbatida, inson ma'naviy tarbiyasini ta'minlashga xizmat qiladigan baxtu saodat va ezgulik sari intilish, qolaversa ana shu tamoyillar asosida hayot kechirish zarurligini taqozo etadi. Insonning boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladigan, ulardan yuksakroq turadigan borliqni anglash, tushunish qobiliyati borligidadir. Sharqda shakllangan boy ma'naviyat va ma'rifat insoniyat tarixining turli davrlarida, turli mintaqalarda keskin burilishga sabab bo'lgan taraqqiyotga poydevor yaratgan. Bizning yurtimizda azaldan nodonlik va xurofot qoralangan, ma'naviyat, ma'rifat, diniy bag'rikenglik va tafakkurga keng yo'l berilganligi ayni haqiqatdir.

Yurtimizda inson ma'naviy olamini boyitish, ma'naviyatga, tarbiyaga tayanib yashash, komillikka intilish, har tomonlama barkamollik oliy qadriyat sifatida ulug'lanib kelingan. Odamlarning millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, o'lchov – insonning insonligini qadrlash, inson degan muqaddas nomga munosib bo'lish bosh mezon qilib olingan. Bu jarayonda esa, albatta insonning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda xalqlar va millat o'rtasidagi o'zaro ishonch, o'zaro hurmat, diniy bag'rikenglik kabi ulug'vor maqsadlarning amalda borligi muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda dinlararo bag'rikenglik nafaqat diniy soha vakillari, balki butun jamiyat a'zolarining ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutgan, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblangan g'oya sifatida e'tirof etilib kelinmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu g‘oya demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borayotgan mamlakatimiz turli dinlarga mansub kishilarning manfaatlarini uyg‘unlashtirish, ular orasidagi totuvlikni ta’minlash borasidagi ishlarning asosiy mezoniga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Shu ma’noda O‘zbekiston BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan rezolyusiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqqani chuqur mantiqiy asosga egadir. Zero, muqaddas dinimiz bag‘rikenglikka, ezgu amallar va baxtu saodatga olib boradigan yo‘l aynan ma’rifat ekanini alohida uqtiradi”.

Bugungi kunda islohotlarning tub negizida xalqimizning hayot tarzi, xususan ta’lim muassasasi yoshlarining ta’lim-tarbiya jarayonlari, milliy an’ana va qadriyatlarimiz, aholining ruhi va kayfiyati ham har tomonlama hisobga olinib ish yuritilayotgani quvonarli hol. Har qanday islohotning pirovard natijasi, avvalo, uning zaruratini aholining keng qatlamlari qay darajada tushunishi va qo‘llab-quvvatlashi, bu o‘zgarishlarning inson hayotiga, uning farovonligini oshirishga ko‘rsatadigan amaliy ta’siri bilan o‘lchanadi. Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, odamlarga islohotlarning ma’no-mohiyatini aniq-ravshan tushuntirib berish, shu asosda jamiyat a’zolarida ertangi kunga ishonch uyg‘otish va bu orqali insonning ma’naviy qiyofasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz tashabbusi bilan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” ishlab chiqilganligi va ushbu strategiyada beshinchi yo‘nalish sifatida *“Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar”* belgilanligi fikrimizning tasdig‘idir. Bu ham yurtimizda fuqarolarimiz xavfsizligi, millatlar va diniy bag‘rikenglikka berilayotgan e’tibordan dalolat beradi.

“Bag‘rikenglik” tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, etika, dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi. “Tolerantlik” – lotincha “tolerare”, ya’ni “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma’nosini anglatgan bu so‘z, asosan biror narsani, o‘zgacha fikr yoki qarashni, o‘z shaxsiy tushunchalaridan qat’i nazar, imkon qadar bag‘rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Xususan, ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to‘ldiruvchi ma’no kasb etib, “chidamlilik”, “bardoshlilik”, “toqatlilik”, “o‘zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish”, “muruvvatlilik”, “himmatlilik”, “kechirimlilik”, “mehribonlik”, “hamdardlik” kabi ma’nolarga ega.

Shu o‘rinda bag‘rikenglikning muhim yo‘nalishlaridan biri “diniy bag‘rikenglik” ekanligini alohida qayd etishimiz lozim. Turli din vakillari e’tiqodidagi mavjud farqlardan qat’iy nazar, ularning yonma-yon, o‘zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta’limotga hurmat bilan qarashni anglatadigan mazkur tushuncha, har kim o‘z e’tiqodiga amal qilishda erkin bo‘lgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e’tirof etishini nazarda tutadi. “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da ta’kidlanganidek, *“Bag‘rikenglik bo‘lmasa, tinchlik bo‘lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo‘lmaydi”*.

Asrlar mobaynida o‘lkamizning shaharu qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko‘rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o‘z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab, og‘ir davrlarida ham ular o‘rtasida diniy asosda mojarolar bo‘lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat’i nazar, insonni ardoqlash va o‘zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish kabi tuyg‘ular, bir so‘z bilan aytganda inson ma’naviy qiyofasi yurtimiz aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo‘lgan diniy bag‘rikenglikning ma’naviy asosini tashkil qiladi.

Ma’lumki, har bir dinning o‘ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba’zan bir-biriga mutanosib bo‘lsa, ba’zan zid ham kelishi mumkin. Diniy bag‘rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini oladi, turli e’tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo‘la olishi uchun xizmat qiladi.

Hadisi shariflarda Payg‘ambarimiz (s.a.v.) shunday marhamat qiladilar: “Imonning afzali sabr va bag‘rikenglikdir”. Chindan ham islom dini ta’limotiga ko‘ra, bag‘rikeng bo‘lish imon belgisidir.

Hozirgi kunda yurtimizda istiqomat qilayotgan turli din vakillari uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi, ayniqsa, diniy bag‘rikenglikka doir qoidalarning qonuniy asoslarda mustahkamlanishi tahsinga sazovordir. Eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 35-moddasida mustahkamlangan *“*Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.*”*, degan qoida diniy bag‘rikenglik uchun dasturul amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu tamoyilga ko‘ra, har kim o‘z dini va e’tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim. Bir kishining din borasidagi qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 19-moddasida ham *“*O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar*”*, degan norma asosida turli diniy e’tiqoddagi insonlarning dini va e’tiqodidan qat’i nazar qonun oldida teng ekanligi e’tirof etilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, nafaqat yurtimizda yashayotgan xalqlar va din vakillarining hamjihatlik, bag‘rikenglik, qardoshlik tuyg‘ulari, balki bugungi kunda bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan izchil va odilona siyosatning samaralari ham muayyan tarzda o‘z aksini topmoqda. Bunda ayniqsa, demokratik jamiyat qurish tamoyillariga mos ravishda, mamlakatimizda milliy va diniy omillarga nisbatan to‘g‘ri munosabat belgilab olingani va barcha ijtimoiy, ma’naviy-madaniy taraqqiyot o‘zaniga batamom mos keladigan faoliyat olib borilganida namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan, davlatning dindan, dinning davlatdan ajratilgani va vijdon erkinligi tamoyiliga amal qilinayotgani fuqarolik jamiyatiga muvofiq ekanini hayotning o‘zi har qadamda tasdiqlamoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, globallashib borayotgan bugungi kunda jamiyat hayotida ma’naviy tarbiya, millatlararo muloqot, sabr-toqat, diniy bag‘rikenglikni kuchaytirish har jihatdan dolzarb vazifaga aylandi. Ushbu jarayonda yurtimizda to‘plangan asriy tajribalardan unumli foydalanish, bu borada zamonaviy realliklarni inobatga olgan holda professional ta’lim muassasasi o‘quvchilarini diniy sohadagi bilimlarini oshirib borish, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash yanada muhim ahamiyat kasb etishini chuqur anglagan holda faoliyatimizni shunga mos holda sidqidildan Vatanimiz ravnaqi yo‘lida sadoqat va fidoiylik bilan xizmat qilishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. -B.456.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil https://lex.uz/docs/6445145